

**KOMPSYUJET - BADIY ASAR SYUJETI ASOSIDA TASHKIL  
ETILADIGAN TA'LIMIY KOMPYUTER O'YINLARI**

**Saburova Qunduz Erkebay qizi**  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*  
*E-mail: [saburovaqunduzxon@gmail.ru](mailto:saburovaqunduzxon@gmail.ru)*  
*Tel: +998907002730*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiy ta'limda raqamli texnologiyadan foydalanish, lengston Hyuzning “Rahmat, sizga xonim” asarini o'qitishning zamonaviy usullari tahlil etilgan.*

***Tayanch so'zlar:** ta'lim, metod, raqamli texnologiya, syujet, kvest, platforma, wordwall, didaktik o'yin.*

Bugungi kunda raqamli ta'limning mamlakatimiz ijtimoiy-ma'rifiy taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilarning fanni o'zlashtirishlari bilan bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanlarni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarda hamda uy sharoitida yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, mustahkamlash va o'z ustida ishlash kabi qobiliyatlari yana ham rivojlanadi. Dars jarayonlarini raqamli texnologiyalar vositasida qiziqarli, jonli tarzda tashkil etish va interfaol topshiriqlar yuzasidan ishlash ko'nikmalarini oshirish o'quvchilarning sohaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Darhaqiqat, hozirda multimediya dasturlari hamda elektron darsliklar turli ishlarni tez va qisqa fursatda amalga oshirishi, tasvirlarni aniq hamda maqsadli namoyish qila olishi, didaktik jihatdan ustunligi bilan bilimni axborotlashtirishning eng asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayon adabiy ta'limda ona tili va adabiyot fanlarini o'zlashtirish sohasida ham bir qancha imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Natijada, har bir o'quvchi o'zi mustaqil ishlay oladi, kompyuter yordamida xatti-harakatlarini boshqaradi, topshiriqlarga yana qayta murojaat qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zotan, axborot texnologiyalari va multimediyali o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi, qolaversa, psixologik jihatdan o'quvchining qiziqishini orttirishga, o'z bilimni erkin qo'llashga sharoit yaratib beradi. Shu bilan birga adabiy asarda tasvirlanadigan qahramonlarning hayoti, adabiy taqdiri misolida o'quvchilarga odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-estetik munosabatlar anglatiladi. Umumiy o'rta ta'limda muayyan ijodkorning hayotiy faoliyati, badiiy ijod mahsullarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatish borasida bugungi adabiyot o'qitish metodikasi ulkan yutuqlarga erishmoqda.

O‘qituvchining “Men hamma narsani bilaman, men qilganimni qil” tamoyili o‘rniga yangi – “Men buni o‘zingiz qilishingizga yordam beraman” paradigmasi taklif etiladi. Negaki, zamonaviy o‘qituvchining asosiy vazifasi – ma’lumotlarni tayyor holda berish va mashqlarning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish emas, balki o‘quvchilarni kerakli ma’lumotlarni mustaqil ravishda turli manbalardan izlab topish, tortishuvga sabab bo‘lgan muammolarni hal etish, o‘z pozitsiyasini himoya qilishga o‘rgatishdir. Buni amalga oshirish uchun o‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lishi va tegishli mashg‘ulotlarda nafaqat zamonaviy metod va usullarni qo‘llashi, balki kompyuter texnologiyalari sohasidagi so‘nggi ishlanmalardan ham foydalanishi kerak. Bu esa darsning ko‘rgazmaliligi va samaradorligini oshirishga bevosita yordam beradi.

Dars jarayonida sinfxonada mavjud bo‘lgan katta ekrandan foydalanish va unda berilgan ma’lumotlar o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanib qoladi. O‘quvchilarning e’tibori ekranda berilayotgan ma’lumotlarda bo‘lgani uchun boshqa narsalarga chalg‘imaydi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida takrorlanadigan matn va grafik materiallar yangi mavzuni og‘zaki izohlash, mustahkamlash bosqichida mashq bajarish va talabalarning bilimlarini sinovdan o‘tkazishda yordam beradi.

“Kvest” texnologiyasi – didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual o‘yin turi. Buni yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki uyga vazifani so‘rash jarayonida qo‘llash mumkin. Uning jarayoni maxsus tayyorlangan xonada bo‘lib o‘tadi. Bunda berilgan vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilar fanni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun, “Kvest” texnologiyasi maktab o‘quvchilari, talabalar, yoshlar uchun qiziqarli ta’lim texnologisi hisoblanadi. Kvest texnologiyasi – bu o‘quv mashg‘ulotlarini o‘qitishning muammoli shakli, tadqiqot, o‘yin va axborot-kommunikatsiya usullarini integratsiyalash, maqsadli qidirishni birlashtirish, sarguzashtlar va (yoki) bosqichma-bosqich topshiriqlarni bajarishga asoslangan hamda o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, “Kvest” texnologiyasi muammoli vaziyat bo‘lib, uni hal etish jarayonida ta’lim oluvchining yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallaydilar.

Hozirga kunda ushbu texnologiyani qo‘llashning har xil shakllari ishlab chiqilgan bo‘lib, I.N.Sokol dars mashg‘ulotlarida o‘tkazish shakli bo‘yicha quyidagicha tasniflaydi[5: 273-275]

1. Kompyuter o‘yinli “Kvest”lar. Bunda kompyuter o‘yinlari yordamida topshiriqlar beriladi.
2. “Veb-kvest”. Veb-sayt, axborot-ta’lim muhitlarini qidirish va virtual lug‘atlardan foydalanish.
3. QR “Kvest”lar. QR kodli topshiriqlardan foydalanish.


4. Mediya-“Kvest”lar. Mediya-resurslardan foydalanish. Bunda foto va video-resurslar tahlil qilinadi.
5. Tabiatdagi “Kvest”lar. Ko‘chalar, bog‘lar, tabiat atrofida mavzuga doir topshiriqlarni berish.

Lengston Hyuzning “Rahmat, sizga xonim” hikoyasini tahlil qilish jarayonida kvest texnologiyasini qo‘llash o‘rinlidir. Hikoyada muallif o‘z g‘oyasini to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmaydi, balki “hayotda bo‘lgan bir voqea”ning tasviri orqali ifoda etadi. Asarda hikoya qilinayotgan voqea “syujet” deb ataladi. Adabiyotning kichik asarlarida (masalan, hikoyada) ko‘pincha bir kichik voqea va uning tafsiloti tasvirlanadi, bu holda asarning ixcham syujetligi haqida so‘z yuritiladi. [3: 179] “Rahmat, sizga xonim” hikoyasi syujeti real voqealar asosida yaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yozuvchi asar qahramonlarini, ularning xarakterini va ijtimoiy holatini tasvirlash uchun turli vositalardan foydalanadi. Asar voqealari ushbu quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

*“To‘ladan kelgan bir ayol yo‘lak bo‘ylab ichiga hamma narsa sig‘adigan katta sumkasini ko‘tarib ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo‘q narsaning o‘zi yo‘q edi, albatta, odamning jonidan boshqa. Bog‘ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olganicha ko‘cha bo‘ylab yolg‘iz ketayotgandi. Soat tungi 11 lar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola yetib keldi va ayolning sumkasini yelkasidan yulib oldi. Ayol o‘ziga kelmay turib, bog‘ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo‘lidan tushib ketdi. Sumkaning og‘irligidan muvozanatini yo‘qotgan bola yiqilib tushdi va oyog‘i jarohatlandi. Ayol esa bolaning yelkasidan ushlab jahl bilan turg‘azdi. [4:85]*


Bu parcha asar qahramoni va uning qilmoqchi bo‘lgan ishi qaysi sharoitda boshlanayotgani haqida kitobxonga ilk ma‘lumot beradi. Asarning ushbu qismidan ekspozitsiya boshlanadi. Bu faqat ma‘lumot berish bilan cheklanmaydi, balki qahramonning bundan keyin ayon bo‘ladigan xislatlarini ham ochib beradi. Rojerning ismli yosh bolakay o‘g‘rilikka qo‘l urmoqchi bo‘lgan bir paytda, Luella xonim uni bu yo‘ldan qaytaradi va unga rahm-shafqat ko‘rsatadi, uning o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi. Asar syujeti hamda qahramonlar xarakterini ochib berishda multimediya vositalaridan foydalanish samarali natija beradi. Adabiyot darslarida tashkil qilinadigan darslar haqida metodist olimi Q. Husanboyeva shunday ta‘kidlagan edi: “Multimediya darslari, asosan, kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘qitilgan mavzuga doir materiallarni internet orqali topishlari ham mumkin. Yoki ma‘lum mavzu, timsollarning xarakteristikasi, asar qahramonlarining umumiy va farqli jihatlari bo‘yicha jadvallar, sayohatnomalarning xaritalarini tuzishlari, ruknlarning modullarini yaratishlari mumkin”. [2: 316]

Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari ta‘lim tizimida turli elektron resurslar faol qo‘llanmoqdaki, bunday manbalarga flippt.net, wordwall, Joyteka, madtest, Blooket, Gimkit kabilarni kiritish mumkin. Ular bevosita dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil qilishga yordam beradi. Badiiy asar syujetini tahlil qilish uchun wordwall, Joyteka dasturlarini qo‘llash mumkin. “Rahmat, sizga xonim” hikoyasini o‘qitishda **Joyteka** dasturi asosida topshiriq beriladi. O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. <https://joyteka.com/100447321> havolasi orqali ekranda ko‘rsatilgan xonada yashiringan savollarni qidirib, to‘g‘ri javobni topishi lozim bo‘ladi. Barcha savollarga to‘g‘ri javob topilsa, eshik ochiladi va keying topshiriqni bajarish imkoniyati beriladi.





Bu xonada o‘g‘rining barmoq izlari hamda ashyoviy dalillar qidirilib, masalaga oydinlik kiritiladi. Hikoyadagi yosh bolakay Rojer kelajakda yana o‘g‘rilik qilsa, qanday yakun topishini muhokama qilishga, uning oldini olish choralarni o‘ylab topishga yordam beradi.

Badiiy asarda personajlarning o‘zaro munosabatlari, xatti-harakatlari, his-tuyg‘ularidan iborat bo‘lgan voqealar rivoji tahlil qilinadi. Adabiyotshunos olim T. Boboyevning syujetni “adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmuyi, kengroq ma’noda, konkret voqealar tizmasida namoyon bo‘ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg‘ular oqimi” [1:108.] degan fikriga tayangan holda, “Rahmat, sizga xonim” hikoyasini **wordwall** dasturi yordamida tahlil qilishni tavsiya qilamiz. Hikoyada keltirilgan har bir detalga alohida e’tibor qaratilib, qahramon xarakteriga bog‘likligini inobatga olish zarur. Asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan voqealar asosida QR kod orqali topshiriq beriladi. Vaqt reglamenti beriladi, barcha javoblarni kiritib bo‘lgach, ism-sharifi yoziladi va to‘plangan ball aniqlanadi. To‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar ham ko‘rsatiladi.



O‘ziga xos jozibadorlik va ko‘p funktsionallik xususiyatlariga ega bo‘lgan dastur barcha uchun qulaydir. Mutaxassislar fikricha, ushbu platformadan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkil etish o‘quvchilarda topqirlik, diqqatni jalb qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar

asosida QR kodlaridan dars mashg‘ulotlarida foydalanish o‘quvchilarga internet



materiallari bilan ishlash uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimida joriy etilishi o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashi, zamonaviy ta’limni tashkil etish hamda ta’lim samaradorligini oshirishga katta xizmat qiladi. Ta’limiy kompyuter o‘yinlaridan foydalanish orqali bolalarda xotira, e’tibor, qabul qilish, fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘nikmalari shakllanadi. Ayni paytda, interaktiv metodlar, internet platformasi, saytlar va mobil ilovalar yaratilib, maktablarda ommabop videodarslardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Agar adabiyot darslarida ham ushbu dasturlardan foydalanilsa, o‘quvchilarning badiiy asar o‘qish samaradorligi bir necha bor oshiriladi. O‘yinlar bolaning nafaqat jismoniy faolligini, balki ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. Ulardan to‘g‘ri foydalanilsa, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari yanada oshadi.

#### Adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. –B. 108
2. Husanboyeva. Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent; Innovatsiya-ziyo, 2020. –B. 316
3. Sul-ton Izzat. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent, 1986, –B. 179
4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun Adabiyot darsligi. –Toshkent, 2022. –B. 85
5. Мосткова Е.Ф. Роль квест-технологий в образовании и воспитании школьников // Дополнительное образование детей в изменяющемся мире: развитие востребованности, привлекательности, результативности Материалы III Международной научно-практической конференции Челябинск, 26–27 октября 2017 года. Челябинск ЧИППКРО. 2017. –С. 273–275.